

2025-yil – “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” IJODIY PARVOZ



2025-yil may № 5 (144) dsmi.uz nashriyot@dsmi.uz t.me/dsmi_uz

O'ZBEKISTON DAVLAT
SAN'AT VA MADANIYAT
INSTITUTINING MA'NAVIY-MA'RIFIY,
ILMIY, IJTIMOIIY GAZETASI



Xotira va qadrlash kuni

Buyuklarim buyuk etgan buyuk el,
Sahobati, saodati suyuq el,
Kuygan ko'ngil yuragi ham kuyuk el,
Ko'ngil ko'zgusida siniq xotirang,
Tafakkur taftida tiniq xotirang.

Kechang-ku ertangga emasmi ustun?
Kechani ertaga bog'laydi bugun,
Bugun – bugunningga navbat yetgan kun,
Tarixing tongdayin tiniq xotira,
Yuraging yuzida yoniq xotira.

Muborak maydonda gulxaning o'chmas,
Ko'ngil ko'zgusidan sahifang ko'chmas,
Mardonam sa'ylaring yellarga uchmas,
O'tkir qalamida qonli xotira,
Oh, qonli ersa-da, shonli xotira.

Ikki eshik orasi – jang dalasi,
Shumi sen ko'rgan kun, o'zbek bolasi,
Quloq tut, mehridaryo – sabr onasi,
Qorachiqda qolgan alam xotira,
Yozsam doston erur qalam xotira.

Andijon ko'ksida Bobur vidosi,
Bilmam dil kuydirdi, Erkin “Nido”si,
Vujudimni tutdi tarix sadosi,
Obidam oynasi – savlat xotiram,
Tuzsam davlat erur, davlat – xotiram.

Abdulla – Abdulla asotir emas,
Ulug'bek narvoni oddiy “zo'r” emas,
Mening bobom – Temur, lang Temur emas,

O'ylasam, o'yimda o'ksik xotira,
Yo'nilib yuksalgan, yuksak xotira.

Navoiy navosi tutdi olamni,
Boysung'ur eshitsin dilda nola'mni,
Endi men madh etay, munis onamni,
Onam qulog'imga ekan xotira,
O'sib osmonlarga tekkan xotira.

Shahid ketgan bobo isming bilmasman,
Nechun seni bilib doston qilmasman,
Seni – sen qilguncha so'zi dilmasman,
Samolar sathida sirli xotira,
Nuroniy bobomday nurli xotira.

Islom bobom qurib, davlat – saltanat,
O'zi jannatlardan yo'diradi – baxt,
Yurtim kelajagi ko'klarga payvand,
Avlodlar qalbida suyuq xotira,
Buyuklar bunyodi – buyuk xotira.

Xotira, xotira bu – mangu olov,
Yaqin yo'lasang dil kuyar beayov,
Olovda toblansin, bu ham bir sinov,
Dilso'z nazarida jondek xotira,
O'zbekiston qilgan o'zbek xotira.

**Dilso'z
HAZRATQULOVA,
“Madaniyatshunoslik”
yo'nalishi 1-bosqich magistranti**



ISHONCH BIZGA MAS'ULIYAT BERADI

**Nargiza ASADOVA,
Madaniyat va san'at sohasi menejmenti
magistranti,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi**

Mamlakatimizda iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash yo'lida olib borilayotgan islohotlar natijasida ilm-fan, madaniyat va san'at kabi ko'plab yo'nalishlarda yoshlar o'z iste'dodlarini namoyon etib kelmoqdalar.

Institutimizdagi adabiyotga ixlosmand bo'lgan yoshlarni rag'batlantirish maqsadida tashkil etilgan Muhammad Yusuf nomidagi ko'krak nishoni hamda stipendiyasi bu yil ham bir qancha talabalarga taqdim etildi. Ular ichida mening ham borligim, qalbinga cheksiz g'urur va faxr berdi. Chunki, O'zbekiston xalq shoiri, ustoz Muhammad Yusufga munosib izdosh bo'lish biz ijodkorlar uchun sharaftir. Mazkur mukofotni institutimiz rektori Nodirbek Sayfullayevning qo'lidan olishimiz esa, bizga yanada kuch va ishonch beradi. Bu ishonch bundan keyingi ijodiy ishlarimizda, yozajak kitoblarimizda bizga o'ziga xos iftixor tuyg'usini bag'ishlaydi.

**T
A
B
R
I
K** O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Xalq ijodiyoti fakulteti “Menejment” ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi Akbaraliyeva Sevinch A'zamjon qizi “Madaniyat va san'at fidokori” ko'krak nishoni bilan taqdirlandi. Sevinch Akbaraliyeva institutida ta'lim olishi bilan birgalikda Mukaramma Turg'unboyeva nomidagi “Bahor” davlat raqs ansamblida faoliyat olib boradi.

Institut rahbariyati ushbu yutuq bilan samimiy muborakbod etadi hamda kelgusida bundanda yuksak marralarni zabt etishini tilab qoladi.



Bugungi sonda: Inson ma'naviyatining shakllanishida musiqaning o'rni

Sharqning buyuk mutafakkirlari musiqiy ohanglarning, ayniqsa mumtoz musiqaning inson ruhiyatiga, kayfiyatiga ta'sir ko'rsatishini, bemorlarni davolay olishini, insonning aqliy va axloqiy xislatlarini shakllantirishni, ularning hordiq chiqarishlari, taskin topishlariga yordam berishni ta'kidlaydilar.

Milliy madaniyatning jo'shqin elchilari

“Al-aziz” karnay-surnay jamoasi jo'shqin elchilar bo'lib, yurakdan yangragan sadosi bilan bizni porloq kelajak sari yetaklamogda...

“Qalb darmonxonasi”

Frenchesko Petrarka esa, kitob o'qimaslikni hayotsiz yashash bilan tenglashtiradi. Unga ko'ra, kitob o'qimagan odam ruhiy va aqliy jihatdan o'lik hisoblanadi. Bu ikki fikr ham kitobxonlikning inson hayotidagi beqiyos o'rnini ko'rsatadi.

Tushunarsiz til

- Attang, men ular tushunadigan tilni bilmayman. Lekin ular bilan suhbatlashishni xohlagandim. Haligi sizning ismingiz nima?
- Said Ahmad.
- Said Ahmad sizmisiz? Bugun adabiyot darsida sizning “Ufq” romanigiz bilan tanishgan edik.

INSON MA'NAVIYATINING SHAKLLANISHIDA

MUSIQANING O'RNI

Mustaqillik tufayli buyuk ajdodlarimizning boy tarixiy qadriyatlari, ming yillikni qamragan betakror madaniyati tiklanlandi. Unitilayozgan ona tilimizga qaytdik, milliy urf-odat va an'analarimiz, milliy san'atimiz, xalq ijodiyoti va musiqa singari xalq ma'naviyatini ifodalovchi barcha qadriyatlarimiz qaytadan qad rostlamoqda. Ma'naviy uyg'onish samarasi odamlarning o'zligini anglash, milliy g'urur, oriyat, avlod-ajdodlarimiz o'tmishidan faxrlanishi, kelajak har kimning o'z qo'lida, mehnatida ekanligi namoyon bo'lmoqda. Bugun millatimizning ma'naviy va intellektual salohiyatini, odamlarning madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladigan ijtimoiy va badiiy omillarini o'rganish, tadqiq etish va ularni umumlashtirish orqali yaxshi natijalarga erishilmoqda.

Inson ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda juda katta imkoniyatlarga ega bo'lgan milliy musiqiy madaniyat va an'anaviy qo'shiqchilik namunalari o'zni beqiyos. Zero, musiqa san'ati orqali vatanga sadoqat, ma'naviy poklik, ruhiy yetuklik, komillik ruhida tarbiyalanadilar.

Musiqa – ulkan ta'sirchan kuchga ega bo'lgan tarbiya vositasi, inson ruhiyatiga hayotbaxsh kuch bera oladigan jon ozig'idir. U kishilarning zavqlanishi, huzurlanishi, maroqli dam olishi, taskin topishi, fikrlashi uchun yordam beradi. Quddratli kuchga ega

bo'lgan musiqa san'ati jozibadorligi bilan inson qalbini qamrab oladi.

Musiqiy cholg'ular ijrosidagi har bir kuy inson ruhiyatini poklab, komillik sari yetaklaydi. Azal-azaldan bu cholg'ular omma orasida shakllanib, mohir cholg'u ustalari tomonidan yasali, tobora mukammallashib kelayotgan mo'jizadir. Cholg'ularda har bir xalqning milliy g'ururi, an'anasi, qadriyatlari o'z ifodasini topadi. Chunki ulardan taraladigan kuyning ohangi ham shunga moslashgan. Bularning barchasi yaratilajak cholg'ularning

shakliga va milliylik mezoniga asos bo'lib xizmat qiladi. Bugun yoshlarimiz san'atning cholg'u ijrochiligi bo'yicha ustoz san'atkorlarning saboqlarini olib, milliy cholg'ularimizda turli milliy kuylarni mahorat bilan ijro etib, chet ellarda katta-katta yutuqlarga erishib kelmoqdalar. Bu o'z o'rnida cholg'u ijrochilik amaliyotining yuqori saviyaga ko'tarilib borayotganligi va umumbashariy madaniyatda alohida nufuzga ega bo'lib borayotganligidan dalolat beradi.

Sharqning buyuk mutafakkirlari musiqiy ohanglarning, ayniqsa mumtoz musiqaning inson ruhiyatiga, kayfiyatiga ta'sir ko'rsatishini, bemorlarni davolay olishini, insonning aqliy va axloqiy xislatlarini shakllantirishni, ularning hordiq chiqarishlari, taskin topishlariga yordam berishni ta'kidlaydilar.

Abu Nasr Forobiyning fikricha, musiqa insonni ma'naviy oziqlantiruvchi omil sifatida ham uning ruhiyatiga singib kirar ekan, shaxsni ma'lum kayfiyatlar orqali u yoki bu maqsadlarga yo'naltirishi lozimdir. Aks holda, musiqa shunchaki dilxushlik

uchun qo'llanilib, uning tarbiyaviy ahamiyati yo'qoladi. Ruhiyat insonning ichki dunyosidir, uning yetuklik darajasi singib boruvchi omillarning xarakteri bilan bog'liqdir. Shunday ekan, musiqa tarbiyaviy omil sifatida ulkan ma'suliyatni o'z zimmasiga oladi, uning ijobiy yoki salbiy ta'sir kuchi juda muhim ahamiyatga ega.

Abu Ali Ibn Sino musiqaga doir fikr-mulohazalarini tibbiyot ilmiga bag'ishlagan asarlarida ham yozib qoldirgan. Jumladan, "Tib qonunlari" asarida yozadi: *"bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qo'llamoq kerak. Biri, bolani asta-sekin tebratish, ikkinchisi, uni uxlatish uchun aytish odat bo'lib qolgan musiqa alallashdir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab, bolaning tanasi bilan badantarbiyaga va ruhi bilan musiqaga bo'lgan iste'dodi hosil qilinadi"*.

Xulosa qilib aytganda, musiqa faqat eshitish, o'yin-kulgi, yoki san'at turi bo'lib qolmasdan, balki inson ma'naviyatini, madaniyatini rivojlantirishining muhim bir qismi sifatida ham o'rganilishi lozim.

Nazariya va amaliyot chorrahasida

O'zbek san'ati va madaniyati asrlar davomida o'zining betakror go'zalligi, teran mazmuni va xalq ruhiyatidagi o'rni bilan ajralib turgan. Bugungi kunda ushbu bebaho merosni saqlash, uni rivojlantirish va zamonaviy boshqaruv yondashuvlari bilan uyg'unlashtirish esa yosh mutaxassislar zimmasiga tushmoqda. Ushbu vazifalarni sidqidildan bajarib, hayotga tadbiiq etishda, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida olayotgan bilim, ko'nikma va malaka dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Men, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Madaniyat va san'at sohasi menejmenti yo'nalishida tahsil olayotgan magistrant sifatida, bu yuksak mas'uliyatni chuqur his qilaman. Ayniqsa, nazariya va amaliyot uyg'unligida tashkil etilayotgan darslar, aynan hayot maktabida shakllanayotgan qimmatli tajribalarimning asosidir. Haftaning har se-shanba kuni – talabalik hayotimizning sayohatlar, amaliy darslarga boy kuni. Sababi, bu kunlarda biz mehribon va samimiy ustozimiz, siyosiy fanlar doktori, dotsent Dilafruz Yusupaliyeva boshchiligidagi, jonajon institutimiz quchog'idan chiqib, Toshkent shahridagi ko'plab ijodiy muassasalar bag'rida "ijodiy muassasalar faoliyatini tashkil etish hamda boshqarish" fanidan olgan bilimlarimizni amaliyot bilan boyitamiz. Bu nafaqat o'qish jarayonining bir qismi, balki o'z kasbingni qalban his qilish, amaliy faoliyatni ko'z bilan ko'rib ko'rish imkoniyati demakdir. Nazariy bilimlar doirasida biz menejmentning asosiy tamoyillari, madaniy faoliyatni rejalashtirish, resurslarni boshqarish, marketing strategiyalari, auditoriya bilan muloqot qilish kabi ko'plab tushunchalarni o'rganamiz. Biroq ularni chinakam tushunish va anglash faqat amaliyot davomida ro'y beradi. Teatr, muzey yoki istirohat bog'iga qadam qo'ygan zahoti, biz

o'rgangan har bir nazariy tushuncha jonlanadi, gavdalanadi va real shaklga kiradi. Bu esa, bilimni chuqurlashtirishning eng samarali yo'lidir.

Teatr – bu oddiygina tomosha maskani emas, bu insoniyat yuragining eng nozik torlarini chaladigan ruhiy maydon, hayotning o'ziga xos aks sadosidir. U yerga qadam qo'yar ekansiz, olam birdan jim bo'lib qolgandek tuyuladi. Ortiqcha shovqin yo'q, yolg'on niqoblar yo'q, faqat sahnadagi haqiqat bor. Sahna yorug'ligi ostida jonlangan har bir obraz – bu hayotning bir parchasidir. Teatr – bu so'zsiz o'git, unsiz hikoya, yurak bilan aytilgan da'vatdir. Teatrda o'tkazgan amaliy mashg'ulotlar davomida men shuni angladimki, san'atni yurak bilan boshqarmoq kerak. Bu yerda har bir detal muhim, har bir lahza quddratli, har bir qaror esa ta'sirli bo'lishi kerak.

Teatr bizga madaniyat menejeri bo'lish uchun zarur bo'lgan tuyg'ularni, nozik idrokni hamda estetik ongini shakllantirishda beqiyos maktab bo'lib xizmat qilmoqda.


Shahidlar xiyoboni – bu yurakni larzaga soluvchi tarixiy maskandir. U yerga qadam qo'ygan zahoti vatan tuyg'usi qalbingizni to'ldiradi. Har bir yodgorlik, har bir nom – o'zbek xalqining mardligi va sabrining timsoli. Bu joyda biz o'tmishni na-

faqat esladik, balki qalbimiz bilan his qildik. Dars davomida shahidlar xotirasini asrash va uni yosh avlodga yetkazish qanday mas'uliyat ekanini chuqur angladik. Bu muqaddas makonda o'rgangan har bir daqiqa, bizga milliy g'urur, tarixiy xotira va ma'naviy poklikni o'rgatdi.

Xiyobonga tashrifimiz davomida muassasani boshqarish va tashkil etish jarayonlarining amaliy tomonlarini yaqindan kuzatdik. Har bir burchakda tartib va ijod uyg'unlashganini ko'rdik. Bog'dagi darslar bizni tashkiliy mas'uliyat, estetik qarash va jamoatchilik bilan ishlash madaniyatiga o'rgatdi. Bu makon biz uchun nazariya bilan amaliyotni bog'laydigan tirik tajriba maydoniga aylandi. Madaniyat bog'lari – bizni kelajakdagi kasbimizga yanada mehr bilan qarashga undagan makon bo'ldi.

Amir Temur davlat muzeyi – buyuk ajdodlar merosi bilan yuzma-yuz keladigan, tarix nafasini dildan his etiladigan muqaddas maskan. Har bir eksponat, har bir zarhal yozuv bizni o'zligimiz, ildizimiz va milliy g'ururimiz bilan bog'ladi. Bu muhitda biz nafaqat tarixni o'rgandik, balki uni zamon bilan uyg'unlashtirish, yosh avlod qalbiga yetkazish mas'uliyatini angladik. Muzey menejmentining nozik jihatlarini o'rganar ekanmiz, ijodiylik va tartib-intizom bir butun tizimga aylanishi zarurligini tushundik. Bu dars bizga tarixni jonlantirish, uni asrash, qadrlash va uni boshqarish san'atini mukammal egallashi lozimligini anglatdi.

Amaliy san'at muzeyi – el ruhiyatining nafis ifodasi, milliy hunar va estetik tafakkurning jonli timsoli. Bu go'zal maskanda har bir naqsh, har bir bezak qalbdagi faxr va hayrat uyg'otadi.



Sabina JUMAYEVA,
Madaniyat va san'at
sohasi menejmenti yo'nalishi
1-bosqich magistranti

Xulosa qilib aytganda, nazariya bizga bilim berdi, amaliyot esa tajriba. Bu ikki kuch uyg'unlashganda, biz haqiqiy mutaxassis bo'lish sari dadil odimlayapmiz. Har bir dars, har bir uchrashuv, har bir muassasa – bu hayot maktabi. Ular bizga nafaqat kasbiy bilim bermoqda, balki madaniyatni yurak bilan anglashni o'rgatmoqda. Bugun biz madaniyat maskanlarida ko'rgan voqea, o'rgangan tajriba, eshitgan har bir so'z orqali kasbimizga mehr ortmoqda. Bu mehr esa, ertaga jamiyatga fayz, xalqimizga zavq, davlatimizga faxr olib keluvchi muhim qadamlarga aylanishi shubhasiz. Men ishonamanki, biz o'z yo'limizni to'g'ri tanlaganmiz. Nazariya va amaliyot chorrahasida toblanayotgan bu yo'l kelajakda madaniyat va san'atimizni yanada rivojlantirib, butun dunyoga tarannum etuvchi fidoyi madaniyat yetakchilariga aylantirdi.

Milliy madaniyatning jo'shqin elchilari

Barchamizga ma'lumki, har bir yurtida el yuragi bilan birga uradigan sado bor. Jumladan, jannatmakon o'lkamizda ham yuraklarni jumbushga keltiradigan tengsiz sado mavjud. Ya'ni xalq ruhining ohangi, millat nafasining musiqasi, tarixni bugunga bog'laydigan yurak zarbidir. Bu sado doira ohangida, surnayning nolasi-yu karnayning jarangida, tor-u tanburning titroq simlarida yashaydi. Aynan shu nafislik, badiiyat, jo'shqinlikni o'zida mujassam etgan jamoa – Yunusobod tuman 22-sonli madaniyat markazi qoshida faoliyat olib borayotgan “Al-aziz” karnay-surnay jamoasi, o'zining yurakdan chiqqan sadosi bilan milliy madaniyatimizning elchisi bo'lib maydonga chiqqan.

Musiqasi bu – nafaqat quloqqa yoqimli ohang, bemorni sog'aytiradigan dori, kim uchundir motivatsion kuchdir. Har bir millatning ruhiy olami, uning musiqasida mujassam bo'ladi. Shunday ekan, milliy cholg'ularimiz qatorida joy olgan doira, karnay-surnayda ajdodlarimizning ruhiy qiyofasi yashiringan. “Al-aziz” karnay-surnay jamoasi ana shu ohanglar orqali nafaqat san'atni, balki xalqning ichki olamini, madaniy zaminini, qadimiy qarashlarini aks ettirib kelmoqda. Ular doirada: urushsiz g'alabani, karnayda: hayot quvonchini, surnayda esa, ruhiyatning sirli nolasini tinglovchiga yetkazadi. Bu sado – jonli tarix, har bir notasi orqali bir daqiqada qalbni uyg'otadigan mo'jizadir.

“Al-aziz” karnay-surnay jamoasi-ning har bir chiqishi – tomoshabinlarni faqat san'at bilan emas, milliy ruh bilan to'ldiradi. Jamoa tumandagi umumta'lim maktablari bilan shartnoma asosida faoliyat olib boradi. Bu esa, san'atni qalblarga yoshlik chog'idan singdirish, milliy qadriyatlarini maktab ostonasidan boshlab yurakka olib kirish demakdir. Bu hamkorlik doirasida yoshlar doira, karnay-surnay san'atiga o'rgatiladi. Har bir asbob bilan tanishayotgan bola – bamisoli nomoddiy merosni kashf etayotgan sayohatchi. Ularning orasidan iste'dodli yoshlar tanlab olinib, madaniyat va san'at yo'nalishlariga yo'naltiriladi. Shunday qilib, “Al-aziz” karnay-surnay jamoasi nafaqat bugunning, balki ertaning ham sadosini yangratmoqda. “Al-aziz” karnay-surnay jamoasining faoliyati faqat sahna bilan cheklanmaydi. Ular ijodiy ishlanmalar, bukletlar, tarqatma materiallar, ijroi lavhalar bilan ijtimoiy tarmoqlarda ham doimiy faollik ko'rsatmoqda. Bu bilan ular faqat musiqani emas, balki milliy g'oyani, madaniyatni, o'zlikni targ'ib qilmoqda.


“Al-aziz” karnay-surnay jamoasi-ning repertuari – milliy iftixor va badiiy mahorat uyg'unligidir. Ular har yili badiiy kengash tomonidan tasdiqlangan 12 ta asar asosida ish yuritadilar.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va targ'ib qilishni rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”, 2023-yil 25-dekabrda PQ-405-son qarori 12-bandi uchinchi xatboshi bilan “Aholiga madaniy xizmat ko'rsatish darajasini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”, 406-son qarori 5-bandida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirining “Milliy qadriyatlar oyligi” tadbirlari va xalq sayllarini o'tkazish to'g'risida”, 2024-yil 27-fevraldagi 104-son buyrug'i qabul qilindi. Buyruqqa binoan, “Milliy qadriyatlar oyligi” tadbirlari 2024-yildan buyon mart oyida o'tkazilib kelinmoqda.

“Milliy qadriyatlar oyligi” tadbirlari va xalq sayllarini o'tkazish konsepsiyasiga muvofiq, tadbirlar hududiy folklor va boshqa yo'nalishdagi

jamoalar, milliy xalq o'yinlari ustalari, mahalliy hamda xorijiy mehmonlar tashrif buyuradigan sayl tarzida tashkil etiladi. Shu munosabat bilan, 2025-yil 14-mart kuni Toshkent shahar Madaniyat boshqarmasi tomonidan Toshkentdagi “Navro'z” bog'ida katta bayram tadbiri bo'lib o'tdi. Ushbu tadbirda “Al-aziz” karnay-surnay jamoasi nafaqat chiqish qildi, balki milliy g'urur va san'atni keng ommaga namoyon etdi. Undan tashqari, jamoa tomonidan mart, aprel oylarida 12 ta madaniy tadbir tashkil etildi. Ular orasida Turkiy Universitetlar Ittifoqining topshiruv marosimi, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludiga bag'ishlangan badiiy kechalar, “Uch avlod uchrashuvi”, “Qadriyatlar boqiy bo'lsin, Navro'z” shiori ostida o'tkazilgan madaniy tadbirlar, “Turon” tanlovining ochilish marosimi, shuningdek, askarlarni tantanali kutib olish marosimlari bor edi. Ushbu tadbirlarning



Naima BOYQOBILOVA,
Madaniyat va san'at sohasi
menejmenti mutaxassisligi
1-bosqich magistranti

barchasida “Al-aziz” karnay-surnay jamoasi madaniyat elchisi sifatida qatnashdilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrda PQ-406-sonli qaroriga muvofiq, 2024-yil 1-martdan boshlab “Al-aziz” jamoasi sayilgoh ko'chasidagi “Al-aziz” restorani va anhor bo'yida haftada ikki marta konsert dasturlari namoyish etmoqda. Bu tashabbus orqali hududlar turistik salohiyatini yoritish, madaniyatni xorijiy mehmonlarga ko'rsatish, milliy musiqasi orqali xalqaro sahnaga chiqish imkoniyati kengaymoqda. Sayohatchilar uchun ham bu chiqishlar ko'ngil zavqi, O'zbekiston haqida jonli taassurot, milliy ohanglar orqali bu yurt bilan tanishish imkonidir. “Al-aziz” jamoasi esa bu yo'lda san'at elchisi, milliy ruh targ'ibotchisi sifatida o'zining sadosini dunyoga yoymoqda.


Bugun milliy qadriyatlar haqida so'z borar ekan, ularni faqat tarixiy muzey eksponati sifatida emas, balki barhayot hodisa sifatida idrok etishimiz kerak. “Al-aziz” karnay-surnay jamoasi bizga shuni isbotlamoqda. Ular san'ati orqali yoshlarning qalbini uyg'otmoqda, tarixni hozirgi zamon tilida kuylamoqda, musiqasi vositasida milliy o'zligimizni asrab qolmoqda. Ularning sadosi – bizning yuragimizdagi sado. U yangrasa, millat uyg'onadi. Zero, har bir millat o'zining musiqasi, madaniyati, qadriyatlarini bilan buyuk. Bu yo'lda “Al-aziz” karnay-surnay jamoasi jo'shqin elchilar bo'lib, yurakdan yangragan sadosi bilan bizni porloq kelajak sari yetaklamokda...

Chexov orzusi

Atoqli rus adibi, jahon hikoyanavisligida maktab yaratgan yozuvchi Anton Chexovning aktrisa Olga Knipper bilan go'zal muhabbati haqida juda ko'p yozilgan. Chexov teatr san'atini nihoyatda sevardi, shu bois sahna uchun olamshumul pyesalar yaratadi va umr qismatini ham teatr aktrisasi bilan bog'lashga qaror qiladi. Anton Pavlovich rafiqasi bilan ilk bora Moskva Badiiy akademik drama teatrida “Chayka” va “Shoh Feodor Ioannovich” spektakllarining repetitsiyalarida tanishadi. Olga xonim Chexovning “Chayka”sidagi Irina obrazini ijro etardi, adib repetitsiyadan keyingi xotiralarini shunday yozadi: “Menimcha, Irina ajoyib. Agar men Moskvada qolganimda, shu Irinani sevib qolgan bo'lardim”.

Iqtibos





"QALB DARMONXONASI"

Bizga ma'lumki kutubxonalarning ijtimoiy roli hamda ularning jamiyatdagi o'rni masalasiga qadim zamonlardan ahamiyat berilgan. Qadimgi kutubxonachilar kitoblarni joylashtirish va saqlash faoliyatini olib borgan bo'lsalar, Misrda kutubxonalar ta'lim maskani sifatida e'zozlanib, kutubxona peshtoqiga *"Qalb darmonxonasi"*, – deb yozib qo'yilgan. Kitob zamon dengizida sayohat qilayotgan va o'zining qimmatli xulosalarini avlodlarga yetkazayotgan hikmat kemasi sifatidagi bebaho ne'matdir. Bu fikrni tasdiqlab, xurosonlik olim, tasavvuf ilmining zabardast namoyandasi Hoji Bektash Veli shunday deydi: *"Kitob hayotning eng olis va qorong'i yo'llariga nur baxsh etgan afsonaviy chirog'idir"*.

Abu Rayhon Beruniyning qarashlarida: *"Insonga katta sharaf ko'rsatilgan, unga aql-zakovat va kuch armug'on etilgan. Shu sababdan, insonning ma'naviy qiyofasi uning oldiga qo'yilgan vazifalarga mos bo'lishi uchun u yuksak axloqli, bilimli, ma'rifatli bo'lmog'i darakor..."* – deya ta'kidlagan. Ma'rifat, ziyo, komillikka erishish avvalo mutolaa bilan, ilm-fan sir-larini puxta egallash bilan qo'lga kiritiladi. Bu borada eng yaqin ko'makchi kitobdir. Kitob insoniyat tomonidan yaratilgan betakror mo'jizadir. Zero, kitob insonni tarbiyalash xususiyatiga ega bo'lgan eng yaqin do'stidir. Kitobning inson kamolotiga yetishidagi o'rni haqida o'zbek xalqi tomonidan qoldirilgan qimmatli fikrlar, tashbehlar nihoyatda qiymatlidir.

Jumladan, atoqli adabiyotshunos olim va tarjimon Ozod Sharafiddinov dunyodagi yetti mo'jizaga ta'rif berib *"...yetti mo'jiza inson aqlining, tafakkurining, qalbining otashin madhiyasi, inson dahosining ulug'ligiga qo'yilgan mangu obida bo'lib kelmoqda. Biroq, shunday bo'lsa-da, olamda yana bir mo'jiza borki, uning buyukligi, muqaddasligi yetti mo'jizaning jamiki ulug'vorligi, go'zalligidan kamlik*

qilmaydi. Bu mo'jiza – kitob. Kitobning mo'jiza, mo'jiza bo'lganda ham birinchi mo'jiza ekanligini ko'pgina buyuk odamlar qayd qilgan", – deb yozadi.

Georg Lixtenbergning fikricha, kitob yig'ishning o'zi foydali ish, ammo ularni o'qish yanada muhimroqdir. U bu yerda inson bilimga ega bo'lishi uchun faqat kitob to'plash emas, balki uni o'qish kerakligiga urg'u beradi.

Frenchesko Petrarka esa, kitob o'qimaslikni hayotsiz yashash bilan tenglashtiradi. Unga ko'ra, kitob o'qimagan odam ruhiy va aqliy jihatdan o'lik hisoblanadi. Bu ikki fikr ham kitobxonlikning inson hayotidagi beqiyos o'rnini ko'rsatadi.

Kitob – inson tafakkuri, dunyoqarashi va ruhiyatini boyitadigan qudratli manba hisoblanadi. Inson o'zini rivojlantirishni istasa, kitob bilan do'st tutinmog'i zarur. Kitob o'qish – bu nafaqat ma'lumot olish, balki qalb va ongni boyitishdir. Har bir inson hayotining bir qismi kitob bilan bog'liq bo'lishi kerak. Kitob insonni jaholatdan saqlaydi, uni to'g'ri yo'lga boshlaydi. O'qigan inson fikrlaydi, tahlil qiladi va hayotga boshqacha nazar bilan qaraydi. Shuning uchun kitob o'qishga muhabbat bolalikdan shakllanishi lozim. Darhaqiqat, hech bir

Go'zal SHAVKATOVA,
"Kutubxona-axborot faoliyati"
ta'lim yo'nalishi
1-bosqich talabasi

manba kitob kabi insonni kamolotini yuksaltira olmaydi. Kitob o'qish insonning o'zligini anglashga yordam beradi. Davlatimiz rahbari bu borada maktab o'qituvchilarining oldiga o'quvchilarda milliy xususiyatlardan bo'lmish kitobxonlik madaniyatini shakllantirish masalasiga alohida e'tibor bermoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3271 sonli qaroriga ko'ra, *"Kitob mahsulotlarini nashr etish va targ'ib qilish tizimini tubdan takomillash-tirish, yoshlar ma'naviyati va madaniyatini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"*gi qarori e'lon qilindi. Bundan ko'rishimiz mumkinki, biz kutubxonachilar oldida sharaflari hamda mas'uliyatli vazifa belgilangan. Hozirgi global axborot asrida yoshlar o'z tafakkurini oshirib borishi uchun ko'proq kitob o'qib, bilimli bo'lishi lozim. Bugungi kunda kitob hayotning bir bo'laki bo'lib qolmoqda. Kutubxonalar bilim va izlanishlar makoniga aylangan sababli, yosh avlodni kitobga oshno qilish biz kutubxonachilar oldida turgan ustuvor vazifadir. Biz kutubxonachilar sohani yanada rivojlantirish hamda kelajak avlodga ilm cho'g'ini yetkazish maqsadida o'z ustimizda ishlashimiz zarur. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yuqoridagi qarorida belgilanganidek, so'nggi yillarda yurtimizda kitobxonlik madaniyati yuksalib, barcha viloyatlarda zamonaviy kutubxonalar faoliyati qayta tiklandi. Har bir hududda kamida ming nafardan ortiq kitobxonlar ro'yxatga olindi.

"Soqol-mo'ylovi bormi?"

Nashriyotda o'nlab taniqli tarjimonlar ishlardi. Ularning aksariyati "O'zbekfilm" kinostudiyasining dublyaj bo'limi bilan doimiy hamkorlik qilardi. U paytlar dublyaj san'ati ham, dublyaj sanoati ham juda rivojlangan bo'lib, tarjimonlarning bozori chaqqon, bu ishga mo'aygina qalam haqi ham to'lanar edi. Mahoratli tarjimon bo'lgani uchun ayniqsa Nizom akaga ko'p buyurtma tushardi.

Kinostudiyadan qo'ng'iroq bo'lishi bilan u kishi darhol so'vardi:

– Soqol-mo'ylovi bormi? Yo'qmi? Yo'q, to'g'ri kelmas ekan.

Gap nima haqida borayotganini bilmasdan hayron bo'lardim, hamxonam bir kuni izoh berdi:

– Agar kinodagi qahramonlarning soqol-mo'ylovi bo'lsa, erkin tarjima qilib ketaverasiz – soqol-mo'ylov ostida labining qanday qimirlagani sezilmaydi. Aksi bo'lsa, qiyin, har bir so'zni qahramonning lab-dahaniga aynan mos keladigan qilib o'girish kerak, buni "ukladka", ya'ni "lablashtirish", deydi. Bu ish ikki hissa ko'p vaqt oladi, puli esa – bir xil, tushundingizmi, yosh kadr?

Xayriddin SULTONOVning
"Navoiy-30" kitobidan



Iqtibos

She'rni tahlil qilish juda ham go'zal qizning kiprigini sanash bilan barobar. Kiprik sanashga berilib ketib, go'zallikning asl mohiyatidan bexabar qolib ketasiz.

Ibrohim G'AFUROV



Roman yozish xuddi quduq qazishga o'xshaydi. Har kuni siz tobora chuqurroqqa sho'ng'iysiz. Eng muhimi to'xtamaslikdir. Agar quduqni bir necha kunga ochiq qoldirsangiz, u qurib qoladi. Ayni avjiga yetgan ilhomni saqlab qolish uchun har kuni ishlashingiz kerak.

Xaruki MURAKAMI





Эпизод из занятия по «РЕЛИГИОВЕДЕНИЮ»

Преподавание религиоведения может дать несколько важных преимуществ как на индивидуальном, так и на общественном уровне: **расширение кругозора и культурно-религиозной грамотности, формирование критического мышления, развитие толерантности и межкультурного диалога, понимание истории и политики, личностное развитие, также принести практическую пользу в профессию.**

То есть, религиоведение – это не только академическая дисциплина, но и инструмент для развития гармоничного общества.

Уверена, что восприятие молодёжи предмета религиоведения может быть разным и зависит от множества факторов: семейного воспитания, уровня образования, культурного окружения и даже медийного фона. В одном из занятий по «Религиоведению» доцент Б.Ирисметов задал вопрос: *зачем нужна религия, и нужна ли она вообще?* Студент 1-го курса Государственного института искусств и культуры Узбекистана факультета Библиотечно-информационная деятельность С. Шайназаров, подготовившись на следующий урок, предложил свою точку зрения.

Религия – это система верований и практик, которые помогают людям объяснять жизнь, мир вокруг них и их место в этом мире. Она обычно включает в себя поклонение Богу или богам, духовные учения, обряды и моральные нормы, которые люди должны соблюдать. Религия на протяжении многих веков определяет цель и смысл жизни человеческого общества, так как она основана на моральных принципах и помогает людям находить ответы на важнейшие вопросы о происхождении мира, человека и его судьбе. Однако с развитием науки, технологий и глобализации в последние несколько столетий роль религии в обществе начала меняться. В странах с развитыми экономиками и высоким уровнем образования наблюдается тенденция ослабления влияния религии на общественную и личную жизнь, а также и на государственные институты. Она выражается в разделении религии и государства, снижении роли религиозных норм в праве и культуре, а также в росте светского мировоззрения.

Сегодня вопрос о значении религии становится особенно актуальным. Одни считают, что вера в религиозные практики необходима для сохранения моральных устоев и социальной гармонии, другие же утверждают, что наука и философия могут предложить более объективные и рациональные способы познания мира и решения моральных проблем. В этом контексте мы должны рассмотреть, насколько религия актуальна в современном обществе, как она влияет на жизнь человека и какие вызовы перед ней стоят в будущем.

Анализируя значение религии, Сунатилло предлагает обратить внимание на роль религии в истории человечества. В частности, он считает, что религия всегда была важной составляющей жизни человека. В Древнем Египте и Месопотамии она была не просто частью культуры, но и основой государственного устройства. Например, в Древнем Египте фараоны считались божественными существами, а их власть была поддержана религиозными учениями. В Месопотамии богам приписывались функции, контролирующие жизнь людей и природу, а священники играли важную роль в управлении государством. В Древней Греции и Риме существовала система многобожия, где боги отвечали за различные сферы жизни. Несмотря на разнообразие рели-

гиозных представлений, религия всегда была связана с государственной властью и обеспечивала моральные ориентиры для общества. Средневековье стало временем сильной централизации религии в жизни человека. Римско-католическая церковь приобрела огромную политическую власть и использовала её для контроля над общественными процессами. В этот период религия не только объясняла законы природы, но и диктовала нормы поведения, морали и права. Религиозная инквизиция, крестовые походы, религиозные войны – всё это является результатом сильной власти церкви в средневековом обществе.

С эпохой Ренессанса и начала Просвещения возник процесс секуляризации – отделения религии от государства. Великие открытия учёных, таких как Николай Коперник и Галилео Галилей, поставили под сомнение традиционные религиозные учения о строении Вселенной. Работы философов эпохи Просвещения, таких как Жан-Жак Руссо и Вольтер, способствовали ослаблению влияния церкви. Идеи гуманизма и рационализма начали вытеснять религиозные догматы в европейских странах. Тем не менее, в некоторых странах религия продолжала оставаться важным элементом социальной жизни, и в других частях мира, таких как Индия и исламский мир, религия оставалась не только важной частью культуры, но и основывалась на ней политическая и социальная структура.

В XX и XXI веках роль религии в обществе также подверглась значительным изменениям. В Европе и США с ростом научных достижений, развития технологий и социальной мобильности наблюдается явный процесс секуляризации. Многие люди стали отвергать религиозные учения, предпочитая ориентироваться на научные и светские моральные нормы. Однако, несмотря на этот процесс, религия продолжает оставаться важной в других частях мира, таких как Ближний Восток, Африка и Азия, где она продолжает оказывать значительное влияние на политические, социальные и культурные процессы.

Итак, несмотря на явный процесс секуляризации в развитых странах, религия остаётся важным элементом жизни миллионов людей по всему миру. В XXI веке религия продолжает выполнять несколько ключевых функций.

Во-первых, она предоставляет моральные ориентиры для верующих, помогая людям понять, что является правильным и неправильным. Это особенно важно в условиях глобализации, когда люди сталкиваются с множеством различных культур и ценностей, часто имеющих диаметрально противоположные взгляды на мораль и нравственность.

Во-вторых, она выполняет роль социальной сплочённости. В странах, где религиозные общины активно поддерживают друг друга, религия становится важным источником социальной стабильности и поддержки. Множество религиозных организаций оказывают помощь нуждающимся, организуют благотворительные акции, помогают бедным и без-

домным. Например, христианские и мусульманские общины во многих странах мира занимаются предоставлением гуманитарной помощи и поддерживают программы по защите прав человека.

В-третьих, она продолжает быть важным фактором для сохранения культурных традиций и идентичности. Например, праздники и обряды, связанные с религией, сохраняются в качестве важной части культурного наследия. Религиозные учения также способствуют сохранению языка и традиций, что особенно важно для сохранения уникальности каждой культуры в условиях глобализации.

На вопрос с какими проблемами сталкивается современная религия, Сунатилло считает, что в современный век сегодня она сталкивается с рядом серьёзных вызовов. Одним из них является религиозный экстремизм. Наблюдается рост экстремистских течений, использующих религию как оправдание насилия. Примеры таких явлений можно увидеть на Ближнем Востоке, где экстремистские группировки, такие как ИГИЛ, используют религию для оправдания террористических актов и создания конфликтов. Этот процесс не ограничивается только исламом: христианские радикальные группы в некоторых странах также пропагандируют насилие от имени веры.

Конфликт религии с наукой – это ещё одна важная проблема современности. В некоторых странах, особенно в США, сохраняются дебаты о том, как следует преподавать в школах теорию происхождения жизни: учение о креационизме или эволюции. Противостояние между религиозным и научным мировоззрениями часто приводит к углублению социальных разделений и конфликтов.

Также стоит отметить, что религия в некоторых случаях становится фактором политических конфликтов и нестабильности. В странах, где религиозные организации стремятся к политической власти, религия может быть использована для манипулирования массами и создания общественного контроля. Примером служат многие исламские государства, где религиозные лидеры оказывают влияние на политику, а в некоторых случаях религиозные организации становятся основными политическими силами.

На вопрос, «будущее религии: мы с религией или без неё» – Сунатилло полагает, что она зависит от множества факторов. В развивающихся странах, где религия продолжает играть значительную роль, она, вероятно, сохранит своё влияние и в будущем. Религия может продолжать быть важной частью жизни, обеспечивая социальную сплочённость, моральные ориентиры и духовную поддержку.

В странах, где секуляризация уже значительно продвинулась, таких как большинство стран Европы, возможно продолжение ослабления религии в общественной жизни. В будущем религия в таких странах может стать больше индивидуализированной, превратившись в нечто личное, без сильной связи с общественными структурами и политикой.

Ученые утверждают, что мир без религии может столкнуться с рядом проблем. Отсутствие универсальных моральных ориентиров может привести к размытию нравственных ценностей, что, в свою очередь, может повлиять на стабильность общества. Однако возможно, что в будущем появятся новые философские и этические системы, основанные на гуманизме

и рационализме, которые смогут предложить обществу новые ориентиры.

Итак, религия будет оставаться важной составляющей частью человеческой культуры и общества, несмотря на изменения в мировоззрении и прогресс научных знаний. Мы поняли, что она предоставляет людям моральные ориентиры, ощущение смысла жизни и поддержку в трудные моменты. Для многих людей вера в Бога или следование религиозным практикам может стать источником внутреннего мира и гармонии. Однако в современном мире существует тенденция к секуляризации, когда научные и философские подходы становятся важными альтернативами религиозным учениям. А вопрос *нужна ли религия?* – она остается открытым, поскольку для одних людей вера представляет неотъемлемую часть их жизни, а для других она утратила свою значимость.

Таким образом, можно утверждать, что религия важна и полезна для тех, кто ощущает в ней необходимость. Но не менее важно признать, что каждый человек имеет право на свой выбор, и религиозные убеждения, как и отсутствие таковых, должны признаваться и уважаться в обществе. В конечном счете, значение религии в жизни человека зависит от его личных убеждений и потребностей.

Как видите, интерес и познавательный аспект наших студентов опять утверждает их расширенный кругозор. Преподавание данной дисциплины привлечением студентов к дискуссиям, анализам текстов и изучению исторических фактов дадут молодёжи рассматривать религию не как устаревший феномен или систему догм, а как критическое осмысление предмета.

В тех случаях, когда преподавание религиоведения не является строго академическим и нейтральным, а включает элементы проповеди, у молодёжи может возникнуть отторжение. Для многих важно, чтобы предмет оставался объективным и не посягал на личные убеждения.

Молодые люди, особенно в глобализованном мире, часто стремятся к мультикультурному диалогу. Религиоведение может стать инструментом понимания различных традиций и ценностей, что способствует толерантности и уважению к разным мировоззренческим позициям.

Современная молодёжь получая большую часть информации через интернет, где религия часто становится предметом дискуссионный формирует у многих молодых людей более поверхностное, а иногда искажённое восприятие религиозных тем.

Некоторые молодые люди могут воспринимать религиоведение как не слишком полезный предмет в профессиональном плане. Однако те, кто интересуется историей, философией, юриспруденцией или культурологией, могут увидеть в ней важную академическую дисциплину.

Таким образом, восприятие религиоведения молодёжью сильно зависит от формы преподавания. Если предмет преподносится объективно, с акцентом на анализ, дискуссию, историческое и сравнительное изучение религии, он может быть интересен и полезен для формирования критического мышления, толерантности и культурного интеллекта.

**Подготовила:
доцент кафедры
«Общественно-
гуманитарные науки»
АРИСЛАНБАЕВА З.Е.**



OQILA ORTIQBOYEVA,
“MADANIYAT VA SAN’AT
MUASSASALARI FAOLIYATINI TASHKIL
ETISH HAMDA BOSHQARISH” TA’LIM
YO’NALISHI 4-BOSQICH TALABASI



NIZOMIDDIN ESHMURODOV,
“MADANIYAT VA SAN’AT
MUASSASALARI FAOLIYATINI TASHKIL
ETISH HAMDA BOSHQARISH”
SIRTQI TA’LIM YO’NALISHI
5-BOSQICH TALABASI



GULSEVAR ERGASHEVA,
“KUTUBXONA-AXBOROT FAOLIYATI”
TA’LIM YO’NALISHI 1-BOSQICH
TALABASI

SOG’INCH NIDOSI

Vaqt izmini yo’lga sololmay qoldim,
Yo’qotiblar qo’ydim taqvim sarbonin,
Adashiblar ketdim, bilolmay qoldim,
Hisoblarim yanglish daydi karvonim.

Sog’inch tarozisin keltiring menga,
Qani o’lchab ko’rsin, berolsa gar dosh,
Eng shirin azobsan shirin jonimga,
Mitti tanim sen uchun ulkan bir bardosh.

Sening ishqing ila dostonlar yozay,
Qanchalar sevishim bilmaysan attang,
Sog’inching kuchidan aqldan ozay,
Muhabbatim kuchli Laylidan bilsang.

Qaynoq quchog’ingda yoniblar ketsam,
Nigohlar qadalsa sevgi faslida,
Qaniydi sening-la qoliblar ketsam,
Mehrimg, e’tiboring sevdim aslida.

Ilohiy suralar aytib giriyona,
Qoldim muhabbatli yomg’ir ostida,
Sen uchun jannatdan chiqqan devona,
Nahot joy yo’q bizga yerning ustida.

Sog’indim, sog’indim, seni sog’indim...

Ko’ngil bog’laridan uzib atirgul,
Nozik qo’llaringga bergim keladi,
Visol ko’chasida kezib darbadar,
Sen-la shod-u xurram yurgim keladi.

Umidlar uchquni porlasa go’zal,
Hayot yo’llarini etib charog’on,
Baxtga erishadi faqat va faqat,
Seni chindan sevib, yashagan inson.

Diling torlarini og’ritmaydimi,
Bevafo makrida kuyganim aytsam?
Faqat uyalmagin burib yuzingni,
Jonim, seni qattiq suyganim aytsam.

Ko’ngil bog’laridan uzib atirgul,
Faqat senga sirdosh bo’lgim keladi,
Tunda yotib, hatto tushlarimda ham,
Sening yuzlaringni ko’rgim keladi.



YOZILMAGAN SHE’R

Men yozishim kerak, shunday bitta she’r,
Hech kimning xayoliga kelmagan so’zlar,
Qancha mashaqqatdan to’kilsa ham ter,
Yuraklarni zabt etsin, o’qigach, ko’zlar.

Men yozishim kerak, shunday bitta she’r,
Ko’ngilda bor alam tug’yonlarimni,
O’qib ko’rgach, odamlar nima desa der,
Mening jumbushga kelgan xayollarimni.

Men yozishim kerak, shunday bitta she’r,
Hayotda rost bo’lgan yolg’onlarimni,
Oyoqlar ostida bo’lsa hamki yer,
Undan otilib chiqqan vulqonlarimni.

Men yozishim kerak, shunday bitta she’r,
Hasadgo’ylar eshitib, alamdand yonsin,
O’rmonda, hayvonlar shohi bo’lsa, sher,
Xuddi shoh asardek tarixda qolsin.

Men yozishim kerak, shunday bitta she’r,
Hech kim yozolmasin bunday gaplarni,
Oshiqlar so’rasin, yana yozib ber,
Dilida qolib ketgan bunday xatlarni.

DILBEK ERGASHYEV,
“MADANIYAT VA SAN’AT MUASSASALARI
FAOLIYATINI TASHKIL ETISH HAMDA BOSHQARISH”
TA’LIM YO’NALISHI 3-BOSQICH TALABASI

QIZG’ALDOQ

She’riyat haqida so’z ketsa nogoh,
O’sha she’r keladi doim hayolga,
Doimo eslayman, ko’ngilda bir oh,
Muhammad Yusufning she’ri “Qizg’aldoq”.

Qirdan bo’lak uyi bo’lmagan,
Shoir chalgan sado tinmagan,
Bir bahorga vafo qilmagan,
Muhammad Yusufning she’ri “Qizg’aldoq”.

Gulni ovunchoq deb ovungan shoir,
Gul qadri haqida yozmoqchi bo’lgan,
Qalbidan qog’ozga ko’chirilgan sehri,
Muhammad Yusufning she’ri “Qizg’aldoq”.

Boshlari egilgan kelinchak misli,
G’aribning yo’q ekan bir parvonasi,
Yurakdan yozilgan, rostin yozibdi,
Muhammad Yusufning she’ri “Qizg’aldoq”.

She’rning go’zalligi qilib mahliyo,
Mana yana bir she’r bo’ldiku paydo,
Yashashga muhabbat asl ma’nosi,
Muhammad Yusufning she’ri “Qizg’aldoq”.





TUSHUNARSIZ TIL

Diyorning xonasiga kirishingiz bilan pala-partish yotgan dars stoliga ko'zingiz tushadi. Stol ustida har xil qoramalar yozilgan qog'ozlar qalashib yotar, stol qarshisidagi devorda esa, chet elning mashhur yozuvchilarining suratlari osilib turardi. Nariroqda uchga bo'lingan kitob javonida jahonning eng mashhur kitoblari to'lib yotardi. Diyor esa qo'lida "Jinoyat va jazo" romanini ushlab uxlab qolgan.

Diyorni uyg'otish uchun chalinadigan yoqimsiz soatning ovozi, uni o'rnidan turib, yuz-qo'lini yuvishga majbur qildi. Odatda nonushta qilmaydigan Diyor bu safar ota-onasini hayratda qoldirib, nonushtaga o'tirdi. Chunki u, kecha kitob o'qib kechki ovqatni tanovul qilmagan. Kech turgani uchunmi, shoshilib ovqatlandi-yu maktabga yo'l oldi.

Sinfga kirgach birinchi darsi o'zbek adabiyot ekanligini angladi va biroz xomush tortdi. Sinfxonasiga ustoz kirib kelganida o'quvchilar bir qator saf tortib salom berishdi. Ustoz ularning o'tirishini aytib, doskaga mavzuni yozdi.

- Bugungi mavzu, Said Ahmad "Ufq" trilogiyasi.

Diyor boshini partaga qo'yib oldi. Negadir unga o'zbek adabiyoti yoqmas edi.

- Xo'sh, avvalambor sinfizmizdagi kitobxonlarni bohlaymiz. "Diyor o'rningdan tur. Sen juda ko'p badiiy kitob o'qigansan. Bizga "Ufq" romani haqida bilganlaringni gapirib ber", - dedi ustoz.

- Ustoz men bu romanni o'qimaganman. Menga o'zbek adabiyoti yoqmaydi.

- Iye, bu nima deganing? O'zbek adabiyotining nimasi yomon, - ustoz juda hayron bo'ldi, sababi bu gapni kitobxon boladan eshitishni kutmagandi.

- Ustoz chunki o'zbek yozuvchilarining topib olgan mavzusi urush va urush yillaridagi o'zbek xalqining ko'rgan qiyinchiliklaridan iborat. Axir buning qiziq tomoni yo'qku. Menga jahon adabiyoti yoqadi. Ularda mavzular turlicha. O'qiganda ham odam zerikmaydi.

- Diyor ko'p kitob o'qish yaxshi. Lekin faqat jahon adabiyotini o'qish ham yaxshi emas. Sen o'zbek bo'la turib, o'zimizning asarlarni o'qimasang, fikrlashing butunlay o'zgarib ketadi. Agar bizning yozuvchilarimiz bo'lmaganda edi, sen o'sha jahon adabiyotini ham o'qiy olmasding, sababi juda ko'p asarlarni yozuvchilarimiz tarjima qilishgan. Yoki sen ularni asl tilida o'qiysanmi?

- Yo'q, ustoz. Men hech qaysi tilni bilmayman. Umuman olganda tarjima qilinayotgan ekan. Men nega til o'rganishim kerak.

- Diyor, ish bilganga bir tanga, til bilganga ming tanga deyishgan. Til o'rganish ayniqsa, bugungi kunda albatta kerak.

- Menga til kerak bo'lmaydi.

- Sen shunday deysanda. Shunday vaqt keladi, til senga qanchalik kerak ekanligini tushunib yetasan. O'zbek adabiyotini ham o'qib qo'y, bu eng muhimi. Qani o'tir.

Dars shu zaylda davom etdi...

Diyor sumkasini zo'rg'a sudrab xonasiga kirib keldi. Ust-boshini ham almashtirmasdan qo'lga kitobni oldi-da, yotib oldi. Kitobni ko'zdan kechirib, tarjimonning ism, familiyasi yozilgan joyni topgach, "Tarjima qiladigan odamlar bor", - deya hayolidan o'tkazib, mutolaaga berildi. Qattiq charchagan shekilli, biroz o'tib uxlab qoldi va g'aroyib tush ko'rdi.

Rus adiblarining kitoblarida yozilganidek, katta ziyofatlar o'kaziladigan zal. Zalda turli-tuman odamlar ko'p. Ularning har biri kichik guruhlarga bo'linib, qizg'in suhbat qurishardi. Erkaklar qora kostyum shim kiygan, ayollar esa juda ham did bilan bezatilgan, chiroyli ko'ylaklarda. Ular o'zlarini tutishlaridan kiborli odam ekanliklari bililib turardi.

Diyor ularning yoniga yurib borar ekan, bularning kimlar ekanligini darrov fahmladi. Ular o'zi yoqtirgan va kitoblarini sevib o'qigan mashhur jahon yozuvchilari. Bir burchakda o'tirgan Artur Konan Doylni ko'rib, hovliqib ketdi. Tezda uning yoniga borib gapira ketdi:

- Artur Konan Doyl sizmisiz? Sizning asarlaringiz... Ayniqsa, Sherlok Xolms haqidagi barcha hikoyalaringizni o'qiganman. "Yo'qolgan dunyo" asaringiz esa meni dunyoqarashimni butunlay o'zgartirib yuborgan.

- Sorry, young man, I didn't understand you, - Konan Doyl Diyorga tushunarsiz bo'lgan tilda samimiy jilmayib gapirdi.

Diyor uning gapiga tushuna olmadi. Sal nariroqda Agata Kristini ko'rib qoldi. U bilan ham suhbatlashish ilinjida o'sha tomonga yurdi.

- Detektiv asarlar qirolichasi! Sizning Puaro obrazingiz juda mukammal. "O'nta negr bolasi"ni gapirmasa ham bo'ladi. Qanday qilib bu natijaga erisha olgansiz? - boyagi qiziqish bilan so'radi.

- What do you want? A signature? - dedi Agata Kristi va yon atrofga olazarak qaray boshladi.

Ular oldiga Konan Doyl keldi. Agata va Doyl bir-biri bilan yana o'sha Diyorga tushunarsiz bo'lgan tilda gaplasha ketdi. Ular bir-birini tushunmayotganini aniqlab olish qiyin emas. Diyor sekin ulardan uzoqlashib, kitoblar to'la javon oldiga keldi. Birma-bir kitoblarni olib ochib ko'rdi. Hammasi tushunarsiz tillarda yozilgan. Diyor bitta ham so'zni o'qiy olmadi.

Asliddin RAYIMOV,
"Sahna va ekran san'ati
dramaturgiyasi"
ta'lim yo'nalishi
1-bosqich talabasi

- Nega hammasi tushunarsiz? - Diyorning jahli chiqa boshladi.

Shu vaqtda zalning odam kamroq burchagida o'tirgan Dostoyevskiyni ko'rib, u tomon ildam qadam bosdi.

- Dostoyevskiy sizning "Jinoyat va Jazo" romaningizni o'qiyapman. Bu romanni yozishga sizni nima majbur qilgan? - deya uni savolga tutdi.

- Оставьте меня в покое. Я не хочу не с кем разговаривать, - deya javob berdi Dostoyevskiy.

Shunchalik ham omadsizlik bo'ladimi. Diyor Dostoyevskiyning ham aytgan gaplariga umuman tushunmadi. Bu voqealardan keyin Diyor bir burchakda qolib ketdi. Go'yo o'zi sevgan yozuvchilari undan voz kechib yuborgandek. Shu vaqtda o'ziga tanish bo'lgan o'z tilini eshitib qoldi. O'zbek tilida gapirayotgan bir erkakning oldiga hovliqib bordi va so'radi:

- Kechirasiz, siz meni tushunyapsizmi?

- O'zbek bo'lganimdan keyin, sizni tushunamanda, - deya javob berdi haligi kishi.

- Nega qolganlar meni tushunishmayapti? Bu yerda men yoqtirgan yozuvchilarimni topdim. Ular bilan suhbatlashmoqchi edim. Oldilariga borib gapirsam, ular meni tushunishmayapti va menga qandaydir tushunarsiz tilda gaplar aytishyapti.

- He-he-he, ular o'zbek tilini bilishmaydi. Ularga o'zi tushunadigan tilda gapirish kerak, - deya mu'loyim javob qaytardi haligi kishi.

- Attang, men ular tushunadigan tilni bilmayman. Lekin ular bilan suhbatlashishni xohlagandim. Haligi sizning ismingiz nima?

- Said Ahmad.

- Said Ahmad sizmisiz? Bugun adabiyot darsida sizning "Ufq" romanigiz bilan tanishgan edik.

- Juda yaxshi, sizga yoqdimi?

- Afsuski, men u romanni o'qimaganman, - deya Diyor yerga qarab qoldi...

- Juda ko'p jahon yozuvchilarini tanir ekansiz. Menimcha ularning juda ko'p asarlarini o'qigansiz, lekin agar o'zbek yozuvchilari bo'lmaganda, ularning asarlari tarjima qilinmas, siz ham bu asarlarni o'qiy olmagan bo'lardingiz...

Shu vaqtda Diyor uyg'onib ketdi va xo'rsinib qo'ydi. Onasi uni kechki ovatga chaqirdi.

Stol atrofida oilaviy o'tirishganda Diyor otasiga savol berib qoldi:

- Dada, dunyoda ko'plab odamlar tushunadigan til qaysi?

- Hozirda ingliz tilida ko'p odamlar gaplashadi va tushunadi.

- Men ham shu tilni o'rganmoqchiman.

- Juda yaxshi-ku, ertaga yaxshi o'quv markazi qidirib ko'ramiz, - dedi otasi piyoladagi choydan ho'plab.

- Keyin, kitob do'koniga kirib, Said Ahmadning "Ufq" romanini ham sotib olaylik.

- Sen o'zbek adabiyotiga qiziqmas edingku, - deya kulib qo'ydi onasi.

- Endi qiziqib qoldim-da oyi.

- Bu kitobni kutubxonadan olib o'qisang ham bo'ladi-ku, - dedi otasi.

- Yo'q, men bu kitobni shaxsiy kutubxonamda bo'lishini xohlayman.

- O'g'lim, o'zbek dabiyyotiga qiziqishni boshlaganingdan juda shodman, yangi til o'rganmoqchi bo'lganing esa hammamizni xursand qildi. Erta tong otishi bilan, avval, kitob do'konidan sen aytgan kitobni sotib olishga, so'ng esa chet tili o'quv markaziga boramiz.



Masalnavis ijodkor – Yamin Qurbon

Joriy yilning 1-may O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "Teatr san'ati" fakulteti "Sahna nutqi" kafedrası va masalnavis ijodkor Yamin Qurbon oilasi bilan hamkorlikda tayyorlagan adabiy-badiiy kechasi va "Eng yaxshi masal ijrochisi" ko'rik-tanlovi bo'lib o'tdi. Ushbu adabiy-badiiy kechada "Axborot-resurs markazi" tomonidan kitob ko'rgazmasi tashkil etildi.

Nigora BALTABAYEVA,
"Axborot resurs markazi" direktori v.b

Tadbir ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismda Yamin Qurbon ijodiy faoliyati va yangi "Masallar" kitobi taqdimoti bo'lib o'tdi. Ikkinchi qismda esa Yamin Qurbon masallari bo'yicha ko'rik-tanlov o'tkazildi. Ushbu tanlovda "Mushtum" jurnalining bosh muharriri, shoir Nosirjon Toshmatov rais, "Sahna nutqi" kafedrası v.b. professori Shokir Yusupov, "Sahna nutqi" kafedrası dotsenti Bahodir Mag'diyev, Yamin Qurbonning qizi, yuridik fanlari nomzodi Iroda Qurbonova va Yamin Qurbonning ukasi Odilbek Isobekovlar hakamlar hay'ati a'zolari sifatida ishtirok etdilar. Mazkur tanlovda yigirmadan ortiq ishtirokchilar o'z mahoratlarini namoyish etdilar. Hakamlar hay'atining xulosasiga ko'ra, tanlov g'oliblari quyidagicha baholandi:

1-o'rinni "Dramatik teatr va kino aktyorligi" ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi Mahbuba Shamsitdinova, 2-o'rinni "Qog'irchoq teatr rejis-

syorligi" ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi Davronbek Boyishev va "Qog'irchoq teatr aktyorligi" ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi Hosilbek Valijonov, 3-o'rinni esa, "Qog'irchoq teatr aktyorligi" ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi Fozila Umarova hamda "Dramatik teatr va kino aktyorligi" ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi Xojiakbar Nazarov hamda Dramatik teatr va kino aktyorligi ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi Alisher Qo'ldoshevlar qo'lga kiritdilar. G'oliblar maxsus diplomlar va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar. Shuningdek, homiyar tomonidan "Eng yaxshi ijrolar uchun" 7 nafar talabalarga esdalik sovg'alari topshirildi.

Tanlovga tashrif buyurgan Yamin Qurbonning yaqinlari tomonidan adibning yangi nashrdan chiqqan "Masallar" nomli kitobining 12 nusxasini institutning Axborot-resurs markaziga hadya etildi.



Ko'rgazma

HASAN ABDUNAZAROV

Kitobxonlik haftasi

Mamlakatimiz bo'ylab "O'zbekiston – kitobxonlar yurti" shiori ostida o'tgan beshinchi respublika "Kitobxonlik haftaligi" doirasida madaniy-ma'rifiy tadbirlar, shuningdek, so'nggi yillarda chop etilgan kitoblar taqdimoti, taniqli va yosh adiblar va matbaachilar bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar markazi va Toshkent shahrida, tuman shahar axborot kutubxona markazlarida uchrashuvlar tashkil etildi.

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasida "Kitobxonlik haftaligi" bo'lib o'tdi. Ushbu tadbirlar doirasida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, M.Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universitetining Toshkent shahridagi filiali bilan hamkorlik memorandumini imzolash marosimi bo'ldi. Shuningdek, professor B.To'rayevning "Fazo – vaqt sinergetikasi" va "Oddiy va olimabop sinergetika", tarjimon T. Qo'ziyevning "Palangalik qochqin ayol xotiralari" kitobi, O'zbekiston nashryotining "Buyuklar bolaligi" va "Kitobxon bolalar" turkumidagi asarlar dotsent Azizillox Orolning Alisher Navoiyga bag'ishlangan ilmiy kitobi hamda boshqa mualliflar kitoblari taqdim etildi.



Tadbirlarda o'quv yurtlari talabalari, turli kasbdagi yoshlar, ziyolilar, OAV vakillari qatnashdilar.

Xotira va qarlash kuni

Toshkent fotosuratlar uyida O'zbekiston Badiiy ijodkorlar uyushmasi a'zolari ishtirokida 9-may "Xotira va qarlash kuni" hamda "Ikkinchi jahon urushidagi g'alabani 80 yilligi yubileyi munosabati bilan "Vatan ravnaqi, tinchligi va himoyasi yo'lidagi qahramonlik unutilmaydi" shiori ostida an'anaviy badiiy ko'rgazma tashkil etildi.

Ekspozitsiyadan o'rin olgan rang tasvir, grafika hamda fotosuratlarida ikkinchi jahon urushi davri voqealari ishtirokchilariga bag'ishlangan suratlar, o'tmishga aylanib bo'lgan mashhur zamondoshlarimiz portretlari o'rin olgan.

Ekspozitsiyada taqdim etilgan ijod namunalari aks etgan "Askarning onasi", "Ona o'ylari", "Ko'zda yosh bilan", "Urush yillari qo'shiqlari", "Urush faxriylari" turkumi, shuningdek, yurtimiz faxriylari, bastakor va artistlar, xalq yozuvchilari, shoirlar, xalq rassomlarining portretlari tomoshabinlarda katta taassurot qoldirdi.



XOTIRA VA
QARLASH KUNI

O'zbekiston
xalq artistlari
(chapdan)
Razzoq
Hamroyev,
Soyib Xo'jayev,
Baxtiyor
Ixtiyorov va
Hamza Umarov.

Muassis:

O'zbekiston davlat san'at va
madaniyat instituti

Bosh muharrir

Baxtiyor YAKUBOV



Tahrir hay'ati:

Hamdam ISMOILOV,
Oybek DAVLATOV

Muharrir:

Dilnoza QURBONOVA

Sahifalovchi:

Abdug'ani SODIQOV

Tahririyat manzili: 100164 Toshkent shahri,
Mirzo Ulug'bek tumani,
Yalang'och mavzesi, 127 A uy.
Telefon: (71) 230-28-03.
(71) 230-28-13.

www.dsmi.uz;
nashriyot@dsmi.uz

O'lchami – A3, hajmi 4 bosma taboq.
Gazeta 2.06.2025-yilda topshirildi.

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166
raqami bilan 2012-yil 19-dekabrda ro'yxatga olingan.

Gazeta elektron ko'rinishda havola etilmoqda